

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 4 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 7, НОМЕР 4

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 7, ISSUE 4



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

№4 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2024-4>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабилова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01–Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02–Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдуғани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвоҳид Хабибуллоевич
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03–Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решаёт задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счёт внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ | РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ | EDITORIAL TEAM:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Толипов Файзулла Саидович
кандидат исторических наук, доцент (Узбекистан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Аликариева Аълохон Нуриддиновна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)

Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харрасович
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МАҚОЛАДА КЕЛТИРИЛГАН ДАЛИЛЛАРНИНГ ТЎҒРИЛИГИ УЧУН МУАЛЛИФ МАСЪУЛДИР | АВТОР НЕСЕТ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЗА ДОСТОВЕРНОСТЬ ФАКТОВ ИЗЛОЖЕННЫХ В СТАТЬЕ

1. Fayzieva Farogat MA'LUMOTLAR TO'PLASH JARAYONI SOTSIOLOGIK TADQIQOTLARNING SAMARADORLIK KO'RSATKICHI SIFATIDA.....	5
2. Abduraxmonova Manzura, Akramov Davronbek XAVF GURUHIDAGI OILA FARZANDLARINI IJTIMOYILASHUVIDA MAKTAB VA MAHALLA IJTIMOYIY XODIMINING HAMKORLIGI.....	15
3. Сеитова Зухрагон ГЕНДЕРНЫЕ СТЕРЕОТИПЫ В СОЦИОЛОГИИ.....	21
4. Tagieva Gulsum NOGIRONLARNI IJTIMOYIY HIMOYA QILISHDA IJTIMOYIY TA'MINOTNING O'RNI.....	28
5. Kayumov Kaxramon HOZIRGI DAVRDA KICHIK SHAHARLARNING IJTIMOYIY INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI.....	36
6. Burxanov Xusniddin RAQAMLI JAMIYATDA ALGORITMIK YONDASHUVLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	43
7. Mahammadjanov G'olibjon СОЦИОЛОГИК ТАЪЛИМОТЛАРДА ИЖТИМОЙ ОНГ ТРАНСФОРМАЦИЯСИГА ОИД ПАРАДИГМАЛАР ТАЪЛИЛИ.....	51
8. Masharipov Baxtiyor SHAHAR EKOTIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA YANGI INNOVASION TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING IJTIMOYIY ZARURATI.....	57
9. Gaibnazarov Boxodir SOTSIAL BOSHQARUV TIZIMINING SAMARADORLIGI: XORIJIY TAJRIBA.....	66
10. Ixtiyarov Farxod DAVLAT XIZMATCHILARI MALAKASINI OSHIRISHDA KEYS USULINING IMKONIYATLARI.....	73
11. Axmedov Qaxramon IJTIMOIY XIZMATLAR KO'RSATISH SOHASIDA IJTIMOYIY ISH KADRLARINI TAYYORLASH JARAYONLARINING SOTSIOLOGIK TAHLILI.....	83
12. Akhmedova Rano WELFARE AS A MEASURE OF LIFE SATISFACTION.....	90

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Fayzieva Farogat,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti, sotsiologiya fanlari
bo'yicha falsafa doktori (PhD)
e-mail: faro_fb@mail.ru

МА'ЛУМОТЛАР ТО'PLASH JARAYONI SOTSIOLOGIK TADQIQOTLARNING SAMARADORLIK KO'RSATKICHI SIFATIDA



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000>

ANNOTATSIYA

Maqolada sotsiologik tadqiqotlar o'tkazish jarayonidagi muammolar yoritilgan. Sotsiologik tadqiqotlarning jarayoni hozirda 3 bosqichdan iborat bo'lib, har bir bosqichi uchun alohida mas'uliyat talab qilinadi. Sotsiologik tadqiqotlarning amalga oshirish bosqichlari bir-biri bilan bog'liq bo'lgan jarayon bo'lib, ma'lumotlar to'plash jarayoni ahamiyatga ega. Ushbu maqolada, ma'lumotlar to'plash jarayoni sotsiologik tadqiqotlarning samaradorlik ko'rsatkichi sifatida ko'rib chiqilgan. Sotsiologik tadqiqotlarning samaradorlik muammolari, to'plangan ma'lumotlarning ishonchlilik darajasi doimo sotsiologlarning asosiy muammosi bo'lib kelgan. To'plangan ma'lumotlarning ishonchliligini ta'minlashda, tadqiqot qonun-qoidalariga rioya qilishdan tashqari, ma'lumotlarni to'plovchi intervyuyer va respondentlarning muloqoti ham muhimdir.

Kalit so'zlar: tadqiqotlar, samaradorlik, sotsiologik ma'lumotlar, ishonchlilik, natijadorlik, ilmiy modellar, empirik ma'lumotlar, ilmiy gipoteza, o'zgaruvchi, intervyuyer, respondent, tanlov, etika qoidasi.

Файзиева Фарогат,

Ташкентский государственный университет
узбекского языка и литературы имени Алишера
Навои, доктор философии по социологическим
наукам, (PhD)
e-mail: faro_fb@mail.ru

ПРОЦЕСС СБОРА ДАННЫХ КАК ПОКАЗАТЕЛЬ ЭФФЕКТИВНОСТИ СОЦИОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ

АННОТАЦИЯ

В статье освещаются проблемы в процессе проведения социологических исследований. Процесс социологических исследований в настоящее время состоит из 3 этапов, каждый из которых требует отдельной ответственности. Этапы реализации социологических исследований-это взаимосвязанный процесс, и процесс сбора данных имеет важное значение. В этой статье процесс сбора данных рассматривается как показатель эффективности

социологических исследований. Проблемы эффективности социологических исследований, уровня достоверности собранной информации всегда были главной проблемой социологов. Для обеспечения достоверности собранных данных, помимо соблюдения исследовательского законодательства, также важно общение интервьюеров и респондентов, собирающих данные.

Ключевые слова: исследования, эффективность, социологические данные, надежность, результативность, научные модели, эмпирические данные, научная гипотеза, переменная, интервьюер, респондент, выборка, правило этики.

Fayzieva Farogat,
Tashkent State University of Uzbek Language and
Literature named after Alisher Navoi, doctor of
philosophy in social sciences, (PhD)
e-mail: faro_fb@mail.ru

THE PROCESS OF DATA COLLECTION AS AN INDICATOR OF THE EFFECTIVENESS OF SOCIOLOGICAL RESEARCH

ABSTRACT

The article highlights the problems in the process of conducting sociological research. The process of sociological research currently consists of 3 stages, each of which requires a separate responsibility. The stages of the implementation of sociological research are an interconnected process, and the data collection process is important. In this article, the data collection process is considered as an indicator of the effectiveness of sociological research. The problems of the effectiveness of sociological research and the level of reliability of the information collected have always been the main problem of sociologists. In addition to compliance with research legislation, communication between interviewers and respondents collecting data is also important to ensure the reliability of the collected data.

Key words: research, effectiveness, sociological data, reliability, effectiveness, scientific models, empirical data, scientific hypothesis, variable, interviewer, respondent, sampling, the rule of ethics.

KIRISH

Bugungi kunda O'zbekistonda davlat va jamiyat qurilishining barcha sohalarini demokratlashtirish, ushbu sohalar rivojiga innovasion texnologiyalarni joriy etish, inson taraqqiyoti uchun zarur sharoit va imkoniyatlar yaratish, aholi farovonligini oshirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilayotganiga guvoh bo'lmoqdamiz.

Yangi O'zbekiston jamiyatining turli sohalarida olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalaridagi islohotlarga aholining o'z munosabatini bildirishida sotsiologik tadqiqotlarga e'tibor qaratilmoqda. «Shunday bir sharoitda muayyan sohadagi vaziyatni sifat jihatidan o'zgartirish hamda ilg'or xorijiy va mahalliy nazariy-metodologik vositalardan foydalanish asosida uni rivojlantirish vazifalarini davom ettirish xususida sotsiologik so'rovlar o'tkazishning sifat jihatidan yangi hamda zamonaviy tadqiqot amaliyotini shakllantirish masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda» [1].

Shu boisdan, amaliy sotsiologik tadqiqotlar usullari va metodologiyasini davr nuqtayi nazaridan yangilash, xalqaro va mahalliy ilg'or tajribalar asosida jamoatchilik fikrini o'rganish, buyurtmalarni sifatli bajarish, muammoning asl mohiyatini tezkor aniqlash hamda uning yechimini topishga doir aniq taklif va tavsiyalar berish uchun amaliy sotsiologik tadqiqotlarning tashkiliy mexanizmlarini rivojlantirishga doir ilmiy izlanishlar olib borish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

METODOLOGIYA

Sotsiologik tadqiqotlar amaliyotida ko'pincha so'rovlar, dala tadqiqotlari, tajriba, kuzatuv kabi ishonchli tadqiqot usullaridan keng foydalaniladi. Ilmiy modellar esa, inson xatti-harakatlarini o'rganish uchun yaratiladi. Tadqiqotlarning ilmiy jarayoni tadqiqot natijasidagi olingan

ma'lumotlarni obyektiv va aniq bo'lishiga yordam beruvchi parametrlarni belgilab beradi. Ilmiy usullar tadqiqot natijalarini tizimlashtiradigan qoidalarni belgilaydi.

Empirik ma'lumotlarga asoslangan ilmiy usul orqali dunyo haqida, unda insonlarning ishtiroki haqidagi nazariyalarni ishlab chiqishni va asoslashni o'z ichiga oladi. U empirik dunyoga sodiqligi va muntazam kuzatishi bilan belgilanadi, obyektiv, tanqidiy, shubha va mantiqiy bo'lishga intiladi. Bu esa bosqichma-bosqich yaratilgan qator aniq qadamlarni o'z ichiga oladi. Ilmiy usul tadqiqotning muhim vositasi hisoblanadi: 1.Savol tuzish. 2.Mavjud manbalarni o'rganish. 3.Gipotezani shakllantirish. 4.Tadqiqotni ishlab chiqish va uni amalga oshirish. 5.Xulosa. 6.Xulosa asosida hisobot tayyorlash.

Amaliy sotsiologik tadqiqotlar to'g'ri yoki noto'g'ri faktlar bilan belgilanmaydi. Ushbu sohada tadqiqot natijalari insonlarga ilgari mavjud bo'lmagan bilimlarga, ya'ni boshqa madaniyatlarni, urf-odat va e'tiqodlarni bilish yoki tendensiyalar va turli qarashlarni o'rganish imkonini beradi. Amaliy sotsiologik tadqiqot uchun qanday yondashuv tanlanganidan qat'iy nazar, tadqiqotning maksimal darajada ishonchliligini oshirishni istaydi, bu esa natijalarning samaradorlik darajasi oshishi mumkinligini anglatadi. Ishonchlilik, bir kishi bilan sodir bo'lgan voqealar guruhidagi barcha odamlar bilan sodir bo'lish ehtimolini oshiradi [2].

Shuningdek, tadqiqotni o'lchash uchun ishlab chiqilgan ko'rsatkichlarning qanchalik yaxshi o'lchashni nazarda tutadigan ishonchlilikka intilish lozim.

ASOSIY QISM

Umuman olganda, sotsiologik tadqiqotlarda natijalardagi ijtimoiy xususiyatlar, ularning roli kabi masalalar qiziqtiradi. Sotsiologik tadqiqotlar insonning asosiy ehtiyojlarini qondirish uchun to'siqlarni aniqlash maqsadida muammolarga o'rganishga kirishadi. Ular atrof-muhit ta'siri va jinoyatchilikka, ruhiyatga ta'sir ko'rsatuvchi faol moddalarni suiste'mol qilishga, ajralishga, qashshoqlikka, rejalannagan homiladorlikka yoki kasallikka olib keladigan xatti-harakatlarning ta'siri kabi muammolarni o'rganishlari mumkin. Sotsiologik tadqiqotlarning hammasi ham salbiy xatti-harakatlarga yoki qiyin vaziyatlarga qaratilmaydi. Sotsiologik tadqiqotlar sog'lom turmush tarzi, ta'lim tendensiyasi, oliy ta'lim modellari, sog'lom ovqatlanish odatlari, mahalla tashkilotlari, saylgohlar, internet o'yinlari, ko'ngilochar o'yinlar, farovon turmush tarzi modellari kabilarni ham o'rganishi mumkin. Sotsiologik tadqiqotlarni amalga oshirish jarayonida ilmiy usuldan ma'lumotlarni to'plash va ularni tahlil qilishda keng foydalanilad. Tadqiqotlarni o'tkazish jarayonida ko'proq obyektivlik, maqsad va izchillikni saqlab qolish uchun ongli ravishda ilmiy usuldan foydalanadilar.

Tizimli yondashuv tufayli ilmiy usul amaliy sotsiologik tadqiqotlarni shakllantirishda foyda beradi. Ilmiy usul ijtimoiy muammolarni o'rganishda obyektivlik va izchillikni ta'minlashga yordam beradigan muntazam, uyushgan qator qadamlarni ta'minlaydi. Ular aniqlik, haqqoniylik va ishonchlilik uchun vositalarni taqdim etadi. Xulosasida, ilmiy usul muhokama va tahlil qilish uchun umumiy asosni shakllantiradi.

Muammoni aniqlash (ilmiy savolni qo'yish) ning asosiy qadami bu, muammoning mohiyatini anglash, muammoning o'rganish maqsadi, aniq vazifalar asosida shakllantiriladi. Mavzu vaqt chegarasi va geografiyasini o'rganish uchun yetarli darajada ixcham bo'lishi lozim.

Shuning uchun sotsiologik tadqiqotlarda tushunchalarni aniqlashga harakat qilinadi. Masalan, gigiyenaga oid tadqiqotlarda, gigiyena «tashqi ko'rinishini saqlab qolish uchun shaxsiy odatlar», deb ta'riflash asosida: «Turli xil shaxsiy gigiyena odatlari tashqi ko'rinishning madaniy qiymatini qanday aks ettiradi?» degan savolni qo'yish mumkin. Ushbu asosiy tadqiqot savollarini shakllantirishda amaliy tadqiqot olib boruvchilar muqobil ta'rifni ishlab chiqadilar, ya'ni uni obyektiv o'lchash uchun zarur bo'lgan jismoniy yoki aniq qadamlar bo'yicha konsepsiyani aniqlaydilar.

Muqobil ta'rif konsepsiyaning kuzatilgan holatini aniqlaydi. O'zgaruvchan konsepsiyadan foydalangan holda ma'lumotlarni muntazam yoki takrorlanadigan tarzda to'plashlari mumkin. Muqobil ta'rif haqiqiy, mos va mazmunli bo'lishi, samarali natijani berishi zarur.

Tadqiqotning keyingi qadami adabiyotlar sharhi, bu esa mavjud bo'lgan o'xshash yoki tegishli tadqiqotlarni o'rganishni o'zida namoyon etadi. Ushbu qadam amaliy tadqiqotlar olib borish uchun

ma'lum mavzu bo'yicha ilgari o'tkazilgan ishlar asosida umumiy tushunchasini olishga yordam beradi, ularga avvalgi bilimlar asosida o'z tadqiqotlarini joylashtirish imkonini yaratadi.

Muayyan jamiyatda gigiyena va uning qiymatligini o'rganish uchun tadqiqotchi mavjud tadqiqotlarni aniqlaydi, masalan, bolalarni tarbiyalash, beparvolik, xatti-harakatlar va go'zallikka madaniy munosabat bo'yicha tadqiqotlarni topishi mumkin. Mavjud manbalardan foydalanish tadqiqotni takomillashtirishga yordam beradi.

Tadqiqot gipotezasi ikki yoki undan ortiq o'zgaruvchining qanday bog'liqligi haqidagi farazdir, bu o'zgaruvchilar o'rtasidagi aloqaning taxminiy bayonotini keltirib chiqaradi. Sotsiologik tadqiqotlarda gipoteza ko'pincha inson xatti-harakatining bir shakli boshqasiga qanday ta'sir qilishini taxmin qiladi. Amaliy sotsiologik tadqiqotlarda mustaqil o'zgaruvchilar o'zgarishlarning sababi hisoblanadi.

Sotsiolog olim S.Kravchenko fikricha, bog'liq o'zgaruvchanlik – o'zgarib boradigan samara yoki ta'sir [3]. Masalan, asosiy tadqiqotda insoniy xatti-harakatlarning bir shaklini mustaqil o'zgaruvchi sifatida belgilanib, uning qaram o'zgaruvchiga ta'siri kuzatiladi. Jins (mustaqil o'zgaruvchi) daromad darajasiga (qaram o'zgaruvchiga) qanday ta'sir ko'rsatadi? Din (mustaqil o'zgaruvchi) oila (qaram o'zgaruvchi)ning hajmiga qanday ta'sir qiladi? Ijtimoiy sinf (qaram o'zgarmaydigan) ta'lim darajasi (mustaqil o'zgaruvchi)ga qanday bog'liq? Bularning hammasi bog'liq o'zgaruvchanlikdir. Ushbu bosqichda amaliy sotsiologik tadqiqotning muqobil ta'rifi o'zgaruvchilarni aniqlashga yordam beradi.

Fikrimizcha, mustaqil o'zgaruvchi qaram o'zgaruvchining o'zgarishiga olib keladi. Masalan, bolalarni to'g'ri gigiyena (mustaqil o'zgaruvchi)ga o'rgatish o'z qadr-qimmati (qaram o'zgaruvchi)ni oshiradi, degan gipotezani ilgari surishi mumkin. Boshqacha aytganda, bolaning qadr-qimmati, qisman, gigiyena vositalarining sifati va mavjudligiga bog'liq.

Yana bir sotsiolog olim D.Malseva bu gipoteza teskari ham ishlashi mumkin, deb ta'riflaydi. Uning aytishicha, «Ehtimol, bolalarda o'z-o'zini hurmat qilish (mustaqil o'zgaruvchi) gigiyenik odatlar (endi qaram o'zgaruvchini avtomatik ravishda oshiradi yoki yaxshilaydi, deb hisoblaydi. Mustaqil va qaram o'zgaruvchilarni aniqlash juda muhim. Gigiyena misolida ko'rsatilishicha, ikkita mavzu yoki o'zgaruvchini ko'rsatish yetarli emas, ularning taxmin qilingan munosabatlari farazning bir qismi bo'lishi lozim» [4].

Demak, sotsiologik tadqiqot natijasini to'g'ri taxmin qilish haqiqati gipotezaga zid ma'lumotlarning qabul qilinmasligini anglatmaydi. Insonning qanchalik kasbiy ma'lumotlilik darajasi yuqori bo'lsa, uning maoshi ham, maqomi ham shunchalik oshib boraveradi. Lekin, shunday qarama-qarshi holatlar ham borki, masalan, diplomli mutaxassisdan ko'ra, oddiy kompyuter dizaynerligi bo'yicha kursni o'qigan mutaxassis oliy darajali o'qituvchidan ko'ra ko'proq maosh olish imkoniga ega bo'lishi mumkin. Shunday holatlar ham yuzaga keladiki, ma'lumotga ega bo'lmagan odamlar ba'zida yuqori martabaga ega bo'ladi, ba'zida esa ma'lumoti yuqori bo'lsada, ish topishda muammolarga duch keladi. Shu kabi qarama-qarshiliklarni inobatga olgan holda gipoteza amalga oshiriladi.

D.Malseva izohlash yoki talqin qilishda ilmiy usulga tadqiqot yondashuvi sifatida tayansa-da, boshqalarda esa izohlash asosida ishlaydi. Ushbu yondashuv muntazam bo'lsada, umumlashtirilgan natijalarni topishga intilayotgan gipotezalarni tekshirish modeliga amal qilmaydi. Buning o'rniga, «izohlovchi tuzilma ba'zan talqin etuvchi istiqbol, deb ataladi va ijtimoiy olamni ishtirokchilar nuqtai nazardan tushunishga intiladi, bu esa chuqur bilimlarga olib keladi» [5], deb ta'kidlaydi.

Izohlash mobaynida, asosan xulosalarda ko'proq tushuntirish ta'rifi ega bo'lishi mumkin. Sotsiologik tadqiqotlar asosida mamlakatda, umuman dunyo sahnalarida ro'y berayotgan turli ijtimoiy jarayonlarni o'rganish mumkin, shu bilan bir qatorda ko'plab qiziqarli qonuniyatlarni ham o'rganishga harakat qiladi.

Sotsiologik tadqiqotlarning samaradorlik muammolari, to'plangan ma'lumotlarning ishonchlilik darajasi doimo sotsiologlarning assosiy muammosi bo'lib kelgan. To'plangan ma'lumotlarning ishonchliligini ta'minlashda, yuqorida aytib o'tilgani kabi, dasturlar tuzishda, tadqiqot qonun-qoidalariga rioya qilishdan tashqari, ma'lumotlarni to'plovchi intervyuyer va respondentlarning muloqoti ham muhimjir.

Muayyan ijtimoiy muhitga kirishishda intervyuyer ehtiyotkorlik bilan yondashadi. Anonim va ochiq bo'lish, intervyu va kuzatuv uchun sharoit va vaqt bo'lishi kerak. Ba'zi ishtirokchilar batafsil xabardor bo'lishlari lozim; boshqalar ularni kuzatib borishlarini bilmasliklari kerak. Tadqiqotchi yarim tunda jinoyat maydonida «To'da a'zolari bormi?» deb aytolmaydi. Agar tadqiqotchi kechki kafega kirib, xodimlarga ish samaradorligini o'rganish doirasida kuzatish lozimligini aytadigan bo'lsa, kafe ishchilari o'zlarini tabiiy ravishda tutmasligi mumkin. Bu Xotorn samarasi deyiladi, bu yerda odamlar o'z xatti-harakatlarini o'zgartiradilar, chunki ular tadqiqotning bir qismi sifatida kuzatuv ostidaligini bilishadi. Ba'zi tadqiqotlarda Xotorn samarasi muqarrar tus oladi. Ko'pgina hollarda sotsiologlar tadqiqot maqsadi haqida xabar berishlari kerak. Subyektlar ushbu maqsadlarga rioya qilinishini bilishlari lozim, zero, ma'lum darajada sun'iylik paydo bo'lishi mumkin [6]. Sotsiologlarning mavjudligini ko'rinmas holga keltirish boshqa sabablarga ko'ra har doim ham amalga oshirib bo'lmaydi. Barcha tadqiqotlar tadqiqot dizaynini shakllantiradi, tadqiqot dizayni bir vaqtning o'zida tadqiqotni shakllantiradi. Tadqiqotchilar tadqiqot mavzulari va ularning umumiy tadqiqot yondashuvlariga mos keladigan usullarni tanlaydilar.

Tadqiqotni rejalashtirishda, odatda, to'rtta keng tarqalgan usullardan birini tanlash maqsadli hisoblanadi: so'rov, dala tadqiqotlari, eksperiment va ikkilamchi ma'lumotlarning tahlili yoki mavjud manbalardan foydalanish. Har bir tadqiqot usuli o'zining ijobiy va salbiy tomonlariga ega tadqiqot mavzusi qaysi usul yoki uslublardan foydalanishga katta ta'sir ko'rsatadi.

So'rov eng keng tarqalgan ilmiy tadqiqot usullaridan biridir. Standart so'rov formati odamlarga shaxsiy g'oyalarni ifoda etadigan maxfiylik darajasiga ega bo'lish imkonini beradi. Barcha so'rovlar ijtimoiy tadqiqotlar hisoblanmaydi, ko'plab so'rovlar gipotezani sinovdan o'tkazish yoki muayyan sohaning ilmiy bazasigagina hissa qo'shishga emas, balki marketing ehtiyoj va strategiyalarini aniqlashga ham qaratilgan bo'ladi.

Aksariyat tadqiqotlarda aholining kichik qismini tanlov asosida o'rganishni, ya'ni aholining katta qismini ifodalovchi subyektlarning boshqariladigan sonini aniqlashni afzal ko'riladi. Tasodifiy tanlovda aholi ichida har bir shaxs tadqiqot uchun bir xilda tanlanish imkoniyatiga ega. Ehtimollik qonunlariga ko'ra, tasodifiy tanlov umumiydir. Masalan, «Gallup» AQSh jamoatchilik fikrini o'rganish markazi vakillari so'rov, agar butun mamlakat bo'ylab tasodifiy tanlov sifatida o'tkazilsa, ikki ming yoki o'n ming aholi soni bilan bog'liq bo'lishidan qat'iy nazar, jamoatchilik fikrini aniq baholashni ta'minlashi lozim [7], deb aytadi.

Demak, tadqiqotlarda ma'lumotlarni to'plash jarayoni muhimdir. Barcha tadqiqot jarayonlarini tashkil qilish bilan birga, tadqiqotlar samaradorligida intervyuyerlar mahorati ham ahamiyatlidir. E.Noel fikriga asosan, tadqiqotlar samaradorligi, ma'lumotlarning ishonchli chiqishiga eng katta ta'sir ko'rsatuvchi omil intervyuyerlar va respondentlar hisoblanadi, shu bilan birga, ular tadqiqotning eng zaif nuqtasi hisoblanadi [8]. Intervyuyerning kasbiy mahorati, respondentlar bilan bo'ladigan muloqotlarda kasbiy kompetentlik bilan birga axloqiy va etiket normalari shakllanganligi bilan ham bog'liqdir.

Intervyuyerning respondent bilan muloqotga kirishishi savollarni berish, ma'lumotlarni to'plash mahorati kabi fazilatlariga ega bo'lishi, respondentlarning intervyuyerga ishonishi, o'z fikrlarini ochiq bayon qilishi muhim. Undan tashqari qaysi usullar yordamida ma'lumotlarni to'plash ham ahamiyatlidir. Ushbu ma'lumotlarni to'plashda intervyuyerlar mehnati talab qilinadi. Lekin, har qanday usullarni qo'llashda, ma'lumotlarni to'plash jarayonida ma'lum xatoliklarga yo'l qo'yiladi, aynan ushbu xatolar ma'lumotlar to'plashda tadqiqot sifatiga katta ta'sir ko'rsatadi. Sotsiologik tadqiqotlarga bag'ishlangan adabiyotlarda intervyuyer uchun turli ko'rsatmalar berilgan.

Jumladan, suhbat davomida intervyuyer savolnoma javoblariga undaydigan ta'kidlovlar yoki tushunchalar berishi taqiqlanadi. Suhbat davomida ideal holda belgilangan savollar mazmuni murakkablashib borishi lozim. Bunda savollarning o'zaro bog'liqligi, respondentlarning berayotgan javoblarida qiyinchilik, ikkilanishlar kam kuzatiladi. Umuman, sotsiologik tadqiqotlarda to'g'ri yoki noto'g'ri javoblar yo'q. Insonning savolga nisbatan xolisona fikri bayon qilinadi. Savolga to'g'ri javob olish mahorati, intervyuyerning qobiliyati, savolni taqdim etish mahoratiga bog'liq.

Intervyuyer muayyan tarzda javob berishi uchun respondentni boshqarishi yoki berilgan javoblar uchun rag'batlantirishdan qochishi kerak, aks holda natijalar ishonchsiz bo'ladi.

Intervyuyerning savollarni berishi, ma'lumotlarni olishda yo'l qo'yadigan xatolari butun boshli tadqiqot asosida yig'ilgan ma'lumotlar natijasining noto'g'ri bo'lishiga olib kelish ehtimoli katta. Masalan intervyyuyer ishining sifatini baholovchi yo'l varaqasi (marshrut varaqasi) to'ldirilishi, ish topshirilish haqida hisobotlar, supervayzerlar tekshiruvi, platformalar asosida intervyyu vaqtida ovozning yozilishi kabi nazorat metodlari mavjudligi ham intervyyuyer tomonidan qo'yiladigan xatolarni to'g'rilashga qodir bo'lmay qoladi.

Intervyyuyer respondentni izlashda, qadam asosida ko'plab xatolarga yo'l quyadi. Tadqiqotlar internet platformalari asosida planshetlarda olib borilganda intervyyu diktafonga yozib olinadi, intervyyuyer haqqoniy intervyyu olib borilayotganini tekshirish uchun faqat, bir-ikki intervyyuyni suhbatini eshitiladi, barcha intervyyuyni diktafonga yozilgan intervyyu jarayonini eshitish (chuqurlashtirilgan intervyyulardan tashqari), tadqiqot cho'zilib ketishiga olib keladi. Intervyyuni tekshirish maqsadida boshidan oxirigacha yozib olish va uni stenogramma qilishga ko'p vaqt sarf qilinadi, bu esa ikkinchi muammo kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Shu sababli, intervyyuyni respondent bilan suhbatini davomida ulardan katta mahorat talab qilinadi. Respondent bilan suhbatda intervyyuyerlar qanday xatolarga yo'l qo'yishi mumkinligini o'rganish maqsadida sotsiolog F.Shyuts [9] g'oyasiga asoslanib, «narrativ intervyyu», ya'ni hikoya tarzidagi intervyyu asosida intervyyuylarning tajribalaridagi hikoyalari tahlil qilindi.

Olib borilgan hikoya tarzidagi intervyyu asosida, turli tadqiqot markazlaridagi intervyyuyerlar o'z xohishlari asosida qatnashdi. Unda 23 yoshdan 65 yoshgacha bo'lgan 14 nafar intervyyuyer ishtirok etgan. Intervyyuyerlar tadqiqot faoliyatidagi ish staji turlicha bo'lib, 2 nafari 2 yil, 3 nafari 5 yildan 10 yilgacha, 9 nafari 20 yildan oshiq ish tajribasiga ega mutaxassislar. Ularning 5 nafari doimiy ravishda faqat miqdoriy tadqiqotlarda, 9 nafari miqdoriy va sifatiy tadqiqotlarda qatnashadi.

Ushbu tadqiqot jarayonida, «Intervyyuyer sifatida, ma'lumotlar to'plash jarayonidagi intervyyuyerlar mahorati. Ma'lumotlar to'plash jarayonidagi noodatiy voqealar, ma'lumotlar to'plash jarayonidagi o'ziga xos usullar», mavzusida narrativ intervyyu olindi.

Intervyyuyni samimiy hikoyalari asosida noodatiy voqealar va ulardan chiqib ketish yo'llari, intervyyuyer mahorati asosida yetti xato aniqlandi. Intervyyuda qatnashgan intervyyuyer ismi keltirilmaydi, har bir intervyyuyni ish faoliyatidagi staji asosida A, B, S kategoriyalarga ajratildi. A1, A2, A3, A4, A5, A6, A7, A8, A9 bu kategoriyadagi intervyyuyerlar yigirma yildan oshiq tajribaga ega, B1, B2, B3 kategoriyasidagilar besh yildan o'n yilgacha tajribaga ega, S1, S2 lar esa besh yilgacha bo'lgan tajribaga ega intervyyuyerlar. A kategoriyasidagi intervyyuylarning deyarli hammasi miqdoriy va sifatiy tadqiqotlarda qatnashib keladi, faqatgina A8 bilan belgilangan intervyyuyer sifatiy tadqiqotlarda qatnashmagan. B kategoriya asosidagi intervyyuylarning ikki nafari sifatiy va miqdoriy tadqiqotlarda ishtirok etadi, B1 kategoriyasidagi intervyyuyer faqat miqdoriy intervyyularda qatnashgan. S kategoriyadagi intervyyuyerlar esa faqat miqdoriy tadqiqotlarda qatnashadi.

Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, intervyyuyer tomonidan yo'l qo'yiladigan xatolar quyida keltirilgan natijaga ko'ra belgilanadi. Intervyyuyni ish boshlashidagi **birinchi xatosi**. O'z xohishlari asosida tanlab olingan 14 nafar intervyyuyni 6 nafarida ushbu xatolarni kuzatish mumkin. A4, A8, A9, B1, B2, S2 intervyyuyerlar ish boshlashdan avval hududiy hokimiyatlarga uchrashi va hududiy hokimiyat xodimlaridan birni vakil sifatida tadqiqotda ishtirok etishini talab qilish kabi xatolar ko'rsatildi. «(A4) Men doimo ish boshlashdan avval hududiy boshqaruv tashkilotidan, menga xodimlaridan vakil qo'shib berishini so'rayman, chunki menga tadqiqotni o'tkazishda hududiy boshqaruv tashkilotidan vakil bo'lsa, so'rovnomanini o'tkazish, respondentlarni to'plash oson kechadi», «(S2) Men, ko'pincha, hududiy boshqaruv rahbariyatiga oldindan telefon qilaman va menga ish jarayonini oldindan tashkil qilish va vakil biriktirib qo'yishi kerakligini ogohlantirib qo'yaman», «(B1) Ko'pincha mahallada, e'tirozlar bo'lib turadi. Sotsiologik so'rovlar o'tkazish, anketa savollari bo'yicha ma'lumotlarni to'plash kabi jarayonni ko'p hollarda aholi, hududiy tashkilot rahbarlari, xodimlar doim ham tushunaverishmaydi. Menga «Yana, o'sha qog'ozbozlik, yozib ketish, natijasi yo'q» kabi e'tirozlar ham bo'lib turadi», degan javoblar berilgan.

Demak, qatnashgan intervyyuyerlar xatolari shundan iboratki, ular talablari asosida intervyyu vaqtida o'z-o'zidan, mumkin bo'lmagan, uchinchi shaxsning qatnashishi ta'minlanadi. Bu, so'rovnoma talablariga zid kelib, uning natijasi tadqiqotning haqqoniylikka ta'sir qiladi. Tadqiqot

jarayonida turli qiyinchiliklar bo'ladi, qiyinchiliklarni yengib o'tish intervyuyer mahoratiga bog'liq. Ushbu ko'rsatilgan intervyuyer mahorati, ma'lumotlar to'plashning haqqoniyligiga zid hisoblanadi. Birinchidan, tadqiqotchi yoki boshqa soha xodimlari o'z ishlarini amalga oshirishda boshqa tashkilot xodimlarini asossiz tadqiqotga jalb qilmasligi lozim. Ikkinchidan, har bir tashkilot xodimlarining o'ziga yuklatilgan vazifalari mavjud. Uchinchidan, hududiy boshqarma tashkilotlarida sotsiologik tadqiqotlar haqida ma'lumotlarga ega bo'lmalik, intervyuyerlarning ma'lumotlar yig'ish jarayonini qiyinlashtirishga olib keladi. Intervyuyerlar fikricha, hududiy va mahalliy tashkilot xodimlarining sotsiologik tadqiqotlar haqida xabardorlik darajasi past. Shu sababli tadqiqot o'tkazuvchining sotsiologik tadqiqotlar mohiyatini bilmasliklari, B1 intervyuyer hikoyasi bo'yicha asoslash mumkin.

Intervyuyerning **ikkinchi xatosi**: intervyularda uchinchi shaxsning bevosita qatnashishi. Ikkinchi xato birinchi xatoga o'xshab ketadi. «(A4) kisha (ixtiyoriy tanlov varaqasi) tanlovi asosida ayol kishi bilan suhbatlashishga to'g'ri kelsa, uning turmush urtog'i ham ishtirok etadi va ayolning fikrlariga qo'shilib turadi, bu o'zbek oilalarida tabiiy holat». «(B1) 15 yoshdagi o'smir bolalardan so'rovnoma o'tkazganida, o'smir ko'pincha oldidagi onasi yoki otasiga yuzlanadi, ular qaysidir javobni aytgandan so'ng, o'z fikrini aytadi». Bu hikoyaning ikkalasida ham, intervyu davomida uchinchi shaxs qatnashganligini aniq kuzatish mumkin. Ikkinchi (B1) intervyuyer, xattoki uchinchi shaxsning qatnashishi intervyu qoidasiga zid kelishini hisobga olmagan. Bu kabi xatolar boshqa intervyuyerlarda ham kuzatiladi. «(S1) Ko'pincha oilalarda o'smir yoshdagilar bilan suhbatda, savollar bo'yicha ma'lumotlar olish qiyin bo'ladi. Shunda ota-onalar farzandlari haqida ko'proq ma'lumot beradi va ulardan ham ma'lumot olishga harakat qilaman». Ushbu holat intervyu qoidalari qo'pol tarzda buzilishi hisoblanadi. Ota-onalar javobi yoshlar fikrining real holatini ko'rsatmaydi. Har bir inson individual o'z fikriga ega. So'rovnomada, bir shaxsning fikriga boshqa shaxs aralashishi sotsiologik tadqiqotlar qoidasiga zid hisoblanadi.

Demak, ko'p hollarda uchinchi shaxsning ishtiroki doimiy kuzatilar ekan, bu holat tadqiqot natijasiga salbiy ta'sir qiladi, ya'ni javoblarda real voqelik emas, umumiy tarzda, boshqa insonlar qarashlari asosidagi javoblarni olamiz. Bunday holatda ma'lumotlar to'plashning sifati va ishonchlilik darajasi pasayishiga olib keladi.

Intervyuyerning **uchinchi xatosi**: respondent tanlovining buzilishi. Bu holat ko'pincha intervyuyer charchagan vaqtlarda ko'proq kuzatiladi. «(S2) Kisha (Kisha tomonidan uy ho'jaliklarini ixtiyoriy tanlab olish uchun ishlab chiqilgan metod hisoblanib, kisha kartaning 8 xil tanlov varianti mavjud) kartalar bilan ishlash ozgina qiyinroq, chunki kisha karta asosida ixtiyoriy tanlov amalga oshirilganda, kisha karta bo'yicha uy xo'jaligi a'zolari tanlovi asosida aniqlangan respondent uyidan uzoqda ishlashi, uyga har haftada bir marotaba kelishi yoki talaba sifatida boshqa shaharda o'qishi kabi holatlar uchraydi. Bu kabi holatning oldini olish maqsadida kisha kartalarni ko'pincha xonadondan so'rovnomaga qatnashish uchun o'z xohishini bildirgan insonga to'g'irlayman. Mazkur tartibda, respondentlarning muvozanatini nazorat qilib boraman». Yana 3 nafar intervyuyerning ham kvota tanlovida ishni o'z vaqtida topshirish maqsadida, har bir xonadonga kirib kvota bo'yicha respondentlarni izlaydi va birinchi navbatda mahalla xodimlaridan so'rovnomaning o'tkazishni boshlaydi. Ushbu tajriba, intervyuyer tomonidan to'g'ri hisoblanib, mahalla xodimi so'rovnoma olib borilayotgan mahalla hududida yashasa, qoidaga zid kelmaydi, deb hisoblaydi. Ko'rsatilgan xatolar, «face to face» (yuzma-yuz) intervyu uchun qo'pol xato hisoblanadi. Birinchidan, (S2) tomonidan eng katta xato, bu kisha karta tanlovi buzilganligi kuzatish mumkin. Kisha karta qoidasiga asosan, ixtiyoriy tanlov uchun to'ldirish qoidasida, ushbu xonadonda yashayotgan, 3 kun davomida xonadonda yashab kelgan, (3 kundan ziyod ushbu xonadonda yashamagan bo'lsa, kishga tanlov joyiga kiritilmaydi), javob berish layoqatiga ega bo'lgan uy ho'jalik a'zolari kiritiladi. Kisha kartani so'rovnoma vaqtida uyda bo'lmaganlar katoriga, so'rovnoma vaqtida 3 kundan ziyod uyda bo'lmagan uy xo'jaligi a'zolari kiritiladi. Masalan, ma'lum sabablar asosida ketganlar yoki talaba, mehnat migranti sifatida O'zbekistonning boshqa hududlarida yashayotganlar kiritiladi. Kisha kartani xonadon a'zolariga qarab to'g'irlash xato hisoblanadi. Keyingi intervyuyer xatosi kvota tanlovi asosida, har bir uydin kvota bo'yicha ketma-ket so'rovnoma o'tkazish. Bu ham tadqiqot natijasining bir xil ko'rinishda javoblarga sabab bo'lish ehtimolini ko'rsatadi. Masalan, 20 yoshdan 50 yoshgacha bo'lgan ayollar kvota asosida belgilangan. Bir xonadondan 25 yoshdagi ayol respondent bilan

so'rovnomaga o'tkazildi, keyingi xonadonda tanlov kvota bo'yicha respondent mavjud bo'lsa ham, ushbu xonadonga kirib respondent bilan so'rovnomaga olib borish xato hisoblanadi. So'rovnomaga o'tkazish qadami bo'yicha har uch qadam asosida so'rovnomaga olib borish kerak. Bu kvota tanlovida ham muhim hisoblanadi. So'rovnomaga natijalari ishonchli chiqishida ham muhim.

Qolgan intervyuyerlar javobida ham so'rovnomaga tartib-qoidalariga zid hisoblangan holatlar ko'rsatilgan. Ba'zida xizmat lavozimida sotsiologik savollarga javob berishda, noto'g'ri javob berib qo'ymaslik, asosida real fikrlar berishdan cho'chish xolatlari kuzatiladi. So'rovnomada xato, to'g'ri javoblar emas, balki, savolga nisbatan berilgan fikr muhim hisoblanadi. Undan tashqari, mahalla idorasida o'tkazilgan so'rovnomada yakkama-yakka so'rov qoidasi buziladi.

Intervyuyerning **to'rtinchi xatosi**: intervyuyer respondentga javobni belgilashda ta'sir ko'rsatishi. A9, A2, B2 javoblarida ushbu xatolar mavjud. «(A2) Respondentlar savollarga javob berishda, noto'g'ri javob berishdan qo'rqadilar. Masalan, «Vatanni sevish nimani anglatadi?» degan savolda respondent javob berishga qiynaladi. Uzoq sukutdan so'ng, men ushbu savol yuzasidan fikr aytaman, undan so'ng respondent ham fikr bildiradi»; «(B2) ba'zida berilgan savol bo'yicha respondentlarga javoblar variantida fikrlar berishimga to'g'ri keladi, chunki ko'p hollarda respondentlar javob berishga qiynaladi, shu kabi javobning ko'payib ketmasligi uchun, o'zim javob variantlarini ko'rsataman»; «(A9), Respondentlar ochiq savollarga har doim ham javob beravermaydilar, «o'zingiz yozib qo'ying» kabi holatlar ko'p uchraydi. Masalan, «Sizni hayotingizda mamlakatimizdagi qaysi hodisa ko'proq hafa qilmoqda?» deb berilgan ochiq savolga respondent «o'zingiz yozib qo'ying, ko'p narsalar bor, lekin umumiy ayta olmayapman» kabi javobni beradi. Shunday holatda men turli javob variantini aytib o'taman, respondent o'ziga to'g'ri kelgan javobni tanlaydi va men ushbu javobni belgilayman». Bu holat intervyuyer xatosini anglab yetish o'rniga respondent javobiga ta'sir ko'rsatish mumkin, deb hisoblanmoqda.

Intervyuyer xatosi respondentga kerakli javob variantini taklif qilishidir. Bu holat javoblarning sun'iy lashtirilishiga olib keladi va tadqiqot sifatiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Aniq javob o'rniga intervyuyerning fikri asosidagi javoblar ko'rsatiladi. Bu holatda ham ishonchlilik darajasi pasayadi.

Intervyuyerning **beshtinchi xatosi**: intervyuyer javoblarni muhokama qilishi. «(A8) Respondentlar bilan ko'pincha javoblarni qanchalik muhimligini tushuntirish maqsadida javoblarni tahlil qilib berishga to'g'ri keladi. Bu esa, respondentda sotsiologik so'rovlarga bo'lgan ishonchni yanada oshiradi, deb hisoblayman».

Bu intervyuyerning yana bir xatosi hisoblanadi. Respondent bilan birga javoblar muhokama qilinganda, u keyingi savollarga beradigan javobining ishonchlilik darajasini pasaytiradi, bu ham tadqiqotning samaradorligiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bir xil va umumiy javoblar ham shu tarzda hosil bo'ladi.

Intervyuyerning **oltinchi xatosi**: intervyuyer respondentga boshqa respondentlarning javoblarni keltirib o'tishi. «(B1) Respondentlarning deyarli hammasi, nima sababdan so'rovnomalarni o'tkazish kerak kabi, savollarni ko'plab berishadi. Savollarga javob berayotganda respondentlarni noqulay sharoitga solmaslik uchun, misol tarzda, sizning qo'shningiz ushbu savolga shunday javob bergan, deb aytib o'taman». Ushbu intervyuyer ko'rsatgan holat katta xato hisoblanadi. Bunday xatoga yo'l qo'yish umuman mumkin emas. Birinchidan, respondent javobni qo'shnisining javobiga yaqinroq qilib ko'rsatishga harakat qiladi, chunki intervyuyer tomonidan aytib o'tilgan javobni muqobil javob, deb hisoblaydi. Bu xato to'rtinchi va beshtinchi xatolarga ham mos keladi. Demak, bu holatda ham ma'lumotlar olish jarayoni tadqiqot o'tkazish qoida va talablariga javob bermaganligini ko'rish mumkin.

Intervyuyerning **yettinchi xatosi**: intervyuyer respondentning javobiga qo'shilishi asosidagi ta'kidlov. Ushbu xato sifatiy tadqiqotlarda, ekspert so'rovlarida ham kuzatilgan. Ya'ni, intervyuyerning respondent oldida javoblarni ma'qullashi, keyingi savollar natijasi uchun salbiy ta'sir ko'rsatadi. Misol uchun, respondentning bergan javobiga, intervyuyer, «ko'pchilik ham shuni aytyapti, bu ko'rinib turgan holat» kabi ta'kidlov respondentning keyingi javoblarda intervyuyerga yoqadigan javoblar aytishga harakat qilishi kuzatiladi. «(A7) Ko'pincha ekspert baholash tadqiqotlarida ekspertlar bilan suhbat davomida menga ko'proq ishonishlari uchun men ular bergan

javobni men ham tushunaman qabilida, javobga nisbatan ekspert to'g'ri aytayotganini ma'qullab bir qancha misollar bilan asoslab beraman. Shunda ekspert menga ko'proq ishonishini sezaman, men ham ekspertning sohasi bo'yicha ko'p narsalarni bilishimni ko'rsataman. Ekspert menga ko'proq ishonadi va o'z fikrini to'liq bayon qiladi». Bu holatda ko'proq ekspert intervyuyerga kerakli ma'lumotlarni yig'ishda halaqit beradi. Miqdoriy tadqiqotlarda ham shu kabi holatlarda, respondentlar tomonidan savol beruvchiga to'g'ri keladigan, yoqadigan javoblarni izlashga xarakat qilinadi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish mumkinki, intervyuyerlarning hikoyalari asosida xatolar ko'rsatilmagan intervyuyerlar fikrlaridan, tadqiqotlar davomida ba'zi muammolarning mavjudligi ham ma'lumotlar to'plashda qiyinchiliklar yuzaga kelmoqda.

Jumladan, «(A1) Tadqiqotni boshlashdan oldin hududiy boshqaruv tashkilotlaridan ruhsat olish jarayoni murakkabligi sababli, hududiy boshqaruv tashkilotlariga borishni afzal qo'rmayman. Bu ham vaqt bekor ketishiga sabab bo'ladi». «(A3) Ba'zida savol murakkab so'zlardan tuziladi, shu sababli respondentga savolni qayta-qayta o'qishga to'g'ri keladi, lekin savol shaklini o'zgartirish mumkin emas. Savollarning to'g'ri tuzilmasligi ham respondentlarda, ba'zida o'z fikrini aytishga qiyinchilik seziladi. Shu kabi muammolar yana ikki nafar intervyuyerda (A5), (A6) kuzatilgan.

Demak, narrativ intervyu asosida to'plangan ma'lumotlar, tadqiqotlar jarayonida olingan natijalarning samaradorlik omilini aniqlashga urinildi. Narrativ intervyu davomida xatolar asosida ma'lumotlar to'plash jarayonidagi muammolarni ham aniqlashga xarakat qilindi. Ular quyidagicha:

Birinchidan, joylarda sotsiologik tadqiqotlar haqida xabardorlik darajasining pastligi. Ko'p hollarda rahbar xodimlarda sotsiologik tadqiqotlar haqida, ularning natijalari jamiyat uchun qanday ta'siri borligi haqida tushunchalar mavjud emasligi. Sotsiologik tadqiqotlarni nazorat monitoringgi sifatida qabul qilinishi, aholi orasida sotsiologik tadqiqotlar haqida amaliy ko'nikmalarning mavjud emasligini asoslaydi.

Ikkinchidan, ma'lumotlarni to'plashda tadqiqotchining, intervyuyerning kasbiy mahorati muhim hisoblanadi. Narrativ intervyu asosida ko'rsatib o'tilgan xatolar tadqiqot davomida olingan natijalarning sifatsiz bo'lishiga olib keladi. Ya'ni, jamiyatdagi muammoga qaratilgan tavsiya va takliflar, xatolar asosida o'z natijasini bermaydi. Bu, amaliy sotsiologik tadqiqotlarning samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Uchinchidan, ko'rsatilgan xatolarning barchasi, jiddiy xatolar hisoblanadi. Lekin tadqiqotchi, so'rov o'tkazuvchilarning hikoyasida ushbu xatolar xato sifatida aytib o'tilmaganligi tadqiqotchi, so'rov o'tkazuvchilar kasbiy mahoratga ega emasligini ko'rsatadi. Bu esa o'z navbatida, tadqiqotchi, intervyuyerning kasbiy mahorati haqida aniq ko'rsatmalar mavjud emasligi bilan asoslandi.

To'rtinchidan, xatolari mavjud bo'lmagan respondentlar tomonidan ko'rsatib o'tilgan muammolar asoslidir. Chunki ushbu muammo tadqiqotchi va intervyuyerning shaxsiy kuzatuvlari asosida keltirib o'tildi. Masalan, (S3) intervyuyer ko'rsatib o'tgan muammo bo'yicha, ba'zi markazlar yo'l xarajatlari uchun yetarli darajada mablag' ajratilmasligi aytib o'tilgan. Intervyuyerlar hikoyasi asosida aniqlangan mavjud muammolarni hal etish maqsadida amaliy sotsiologik tadqiqotlarning samaradorligini oshirishda, intervyuyerlarning kasbiy mahoratini oshirib borish muhim.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Социологик тадқиқотлар ўтказишни давлат томонидан қўллаб-қувватлаш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ-5667-сонли Фармони. URL.:<https://lex.uz/docs/4211807>
2. Вдовиченко Л.Н. Социология на службе общества // Социс. - № 2. 2014. – С.134-140.
3. Кравченко С.А. Мосты, соединяющие всевозможные расколы социологии ради более равного мира // Социс. - № 2. 2015. – С.29-38.
4. Мальцева Д.В. Сетевой подход как феномен социологической теории // Социс. - № 4.2018. – С. 3-14.

5. Мальцева Д.В., Романовский Н.В. О современных сетевых теориях в социологии // Социс. - № 8.2011. – С.28-38.
6. Павлов М.Ю. Креативная экономика: как остановить утрату знаний // Социс. - № 3. - 2018. - С. 144- 148.
7. Schulz M.S. The Futures We Want. Global Sociology and the Struggles for a Better World // Global Dialogue. Vol. 5. Issue 2 (June, 2015). – Pp.7–8.
8. Ноэль Э. Массовые опросы. Введение в методику демоскопии.// Пер. с нем.2-изд.М.:АВА-ЭСТРА.1993. – С.37.
9. Schutze, F. (1983). Biographieforschung und narratives Interview. In: Neue Praxis, 3, - Pp.283-293.
10. Alikariev N.S., Alikarieva A.N. Oliy ta’lim sifatini menejmenti tizimini rivojlantirish konsepsiyasi//“Sotsiologiya fanlari” (www.tadqiqot.uz\soci) elektron jurnali. №1. – Toshkent, 2020. – B. 7-18. DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2020-1>.
11. Alikariyev N., Alikariyeva A. Complex factors of increasing the efficiency of human labor//Neuro Quantology. November 2022. Volume 20. Issue 18. Page 102-107.[doi:10.14704/nq.2022.20.18.NQ880012](https://doi.org/10.14704/nq.2022.20.18.NQ880012).www.neuroquantology.com. EISSN-1303-5150.
12. Тураев Б.О. Танланган асарлар 2 жилд. // Ijtimoiy falsafa, sotsiologiya, milliy g’oya va publitsistika. – Тошкент: А.Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонаси нашриёти. 2015. – Б. 278.
13. Fayzirva F. «O’zbekistonda amaliy sotsiologik tadqiqotlar samaradorligini oshirish mexanizmlari». disser. Uzbekistan.Tashkent. 2023 yil. DK:316.34:301.1:314.335.24(575.1)
14. Тураев Д., Файзиева Ф. Қонун ижодкорлигида жамоатчилик фикри муҳим. «Халқ сўзи» газетаси, 249-сон, 20 ноябрь 2021 й.
15. Factors in American Civilization: Studies in Applied Sociology. Brooklyn Ethical Association Fb&c Limited, 2015 M07 2 – P.442.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 4 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 7, НОМЕР 4

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 7, ISSUE 4

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000